	<p>qarab maksimal 0.86 ball berib boriladi, jami 20 ball to'playdi ($23 \cdot 0.86 = 20$ ball).</p> <p>ON mezon (30 ball).</p> <p>ON: Oralq nazorati ma'ruza mashg'uloti tugagandan so'ng o'tkaziladi. Oraliq nazoratida talabaga og'zaki yoki test savollari asosida 15 ball olishi mumkin. ON mustaqil ishi uchun modul jadvali asosida topshiriqlarini berilgan muddatda topshiradi. Belgilangan muddatida taqdim qilinmagan mustaqil ishlar qabul qilinmaydi. Modulda belgilangan mustaqil ta'lim va mustaqil ish uchun talaba 15 ball to'playdi. Talaba umumiy oraliq nazoratdan 30 ball to'playdi.</p> <p>YaN mezon (50 ball).</p> <p>YaN: Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkazilsa, talabaga beshta savoldan iborat variantlar taqdim etiladi. Ularning uchtasi mustaqil ta'limlarga tegishli savollar bo'ladi. Har bir yozma savollarga to'liq yozilgan javobi uchun 10 ball beriladi. Jami 50 ball.</p>
<p>Tavsiya adabiyotlar (darsliklar, qo'llanmalar)</p> <p>etiladigan ro'yxati maqolalar,</p>	<p>Rebecca C. Wade., Outi M. H. Salo-Ahen. Molecular Modeling in Drug Design. Germany (HITS gGmbH/Heidelberg University) vs Finland (Abo Akademi University). 2019 y. Pp 222 p.</p> <p>Matthias Otto. Chemometrics. Statistics and Computer Application in Analytical Chemistry. Third Edition. Wiley-VCH Verlag GmbH & Co. KGa. 2017. Rr. 386.</p> <p>Errol G. Lewars. Computational Chemistry. Introduction to the Theory and Applications of Molecular and Quantum Mechanics. Springer Science-Business Media B.V. 2011. Rr. 687 p.</p>

Band nomi	Funksional materiallarning fizik kimyoviy asoslari
Modul nomi / belgilanishi	FMFKA1206
Modul o'qitiladigan semestr(lar)	2
Modul uchun mas'ul shaxs (aniq ism-sharifi ko'rsatiladi)	Geldiyev Yusuf Allayarovich, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
O'qitish tili	O'zbek
O'quv dasturidagi o'rni (majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli)	Majburiy
O'qitish usullari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar)	ma'ruza mashg'uloti, laboratoriya mashg'uloti
Umumiy o'quv yuklamasi (kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga)	- Umumiy yuklama 180 soat: kontakt soatlari 90 soat, shundan ma'ruza 46 soat, seminar mashg'ulotlari 44 soat. Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik 90 soat.
Kreditlar soni	6
Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar	Magistrlar fanni o'zlashtirishi uchun kvant kimyosi, fizikaviy kimyo, modda tuzilishi, yuqori molekulyar birikmalar kimyosi fanlaridan fundamental bilimlarni bilishi talab etiladi.
Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari	Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga maxsus xossalarga ega bo'lgan birikmalarning sintezi, fizik-kimyoviy xossalari va qo'llanilishiga doir nazariy bilimlarni berish, noorganik, organik, gibrid birikmlarning sintezni amalga oshirish, ularning ma'lum morfologiyasini aniqlash, termodinamik parametrlarini aniqlay olish kabi ko'nikmalarni o'rgatishdan iborat.
— Bilimlar	<p>Funksional materiallarning fizik kimyoviy asoslari fanidan magistrantlar quyidagi bilimlarga ega bo'ladi:</p> <p>Yarim o'tkazgichlar, dielektriklar, magnit, termoelektrik va biomateriallar kabi funksional materiallarning zamonaviy tasnifi, ularning fizik-kimyoviy xossalari va qo'llanilish sohalari;</p> <p>Nanokristalli va ultradispers materiallar, kvant nuqtalari, uglerod nanomateriallari, grafen va boshqa nanoo'lchamli tizimlarning tuzilishi, energetik holatlari va sirt hodisalari;</p> <p>Keramika, kompozit, shishasimon va amorf materiallar tuzilishining termodinamik va kinetik asoslari, ularning mexanik va termik barqarorlik xususiyatlari;</p> <p>Plenkalar, qoplamalar va kristall-funksional materiallar hosil bo'lish mexanizmlari, fazaviy o'tishlar va strukturaviy tartiblanish qonuniyatlari;</p> <p>Ion o'tkazgichlar, supero'tkazgichlar va yuqori temperaturali supero'tkazgichlarning elektron va ion transport mexanizmlari, energiya zonalarini modeli asoslari;</p>

	<p>Organik, noorganik va gibrid funksional materiallar sintezi, ularning o'zaro ta'sirlari va sirt hodisalarining fizik-kimyoviy mohiyati;</p> <p>Sol-gel, emulsiya polimerizatsiyasi, qurilish bloklari yondashuvi kabi zamonaviy sintez usullarining nazariy asoslari.</p> <p>Funksional materiallarni tadqiq etishda qo'llaniladigan zamonaviy instrumental tahlil usullari (IQ, Raman, XRD, XRF va boshqalar) ning fizik prinsiplari.</p>
— Ko'nikmalar	<p>Funksional materiallarning fizik kimyoviy asoslari fanidan magistrantlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:</p> <p>Funksional materiallarning tuzilishi–xossa–funksiya o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;</p> <p>Nanomateriallar, kompozitlar va gibrid materiallarni laboratoriya sharoitida sintez qilish, texnologik parametrlarni tanlash va optimallashtirish;</p> <p>Materiallarning termik, mexanik, optik va elektr xossalarini eksperimental usullar yordamida aniqlash va natijalarni qayta ishlash;</p> <p>IQ, Raman, XRD, XRF kabi tahlil usullaridan foydalanib, modda tarkibi va strukturasi aniqlash hamda spektr va difraktogrammalarni talqin qilish;</p> <p>Uglerod asosidagi nanomateriallar, grafen va organik fotoelektrik materiallar bilan ishlashda xavfsizlik va ilmiy metodologiyaga rioya qilish;</p> <p>Zamonaviy dasturiy vositalar yordamida materiallar tahlili va natijalarni vizuallashtirish;</p> <p>Olingan eksperimental ma'lumotlarni ilmiy maqola, hisobot va taqdimot shaklida rasmiylashtirish, texnik terminologiyadan to'g'ri foydalanish;</p> <p>Funksional materiallarni nanoelektronika, fotonika, sensorika, energetika va biotexnologiya sohalarida qo'llash imkoniyatlarini baholash.</p>
— Kompetensiyalar	<p>sanoat va laboratoriya sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqaradi, texnologik jihozlarning xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlay oladi;</p> <p>tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirishni tashkil etish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish hamda mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'ladi;</p>

Modul mazmuni	<p>Ma'ruza mashg'ulotlari 46 soat, 25.6 foiz.</p> <p>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari:</p> <p>2-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Materiallarning tasnifi; yarim o'tkazgichlari: nanokristalli yarim o'tkazgichlar, kvant nuqtalari, keng bo'shliqli oksidlar, sensorli materiallar, fotonik uchun materiallar yangi uglerod materiallari 2. Dispers va ultradispers materiallar. 3. Keramika va kompozitlar. 4. Shishasimon va amorf materiallar. 5. Plenklar va qoplamalar. 6. Kristall – funksional materiallar. 7. Dielektriklar. 8. Ion o'tkazgichlar. 9. Yuqori temperaturali supero'tkazgichlar. 10. Zamonaviy biomateriallar. 11. Materiallarning magnit xususiyatlari: klassik magnit materiallar, maxsus funktsiyalarga ega magnit materiallar 12. Termoelektrik materiallar. 13. Supero'tkazuvchilar: temir o'z ichiga olgan o'ta o'tkazgichlar; 14. Pyezoelektrik va tegishli materiallarni izlash, sintez qilish va qo'llashga zamonaviy yondashuvlar. 15. Mikro va nanozarrachalarni loyihalash. 16. Koordinatsion birikmalardan fotonika uchun materiallar 17. Uglerod nanomateriallari. 18. Nanotexnologiyada – funksional materiallar. 19. Yangi organik funksional materiallar sintezi 20. Organik elektronikada funksional materiallar 21. Gibril materiallar haqida asosiy tushuncha. 22. Gibril materialning sintetik usullari: qurilish bloklari yondashuvi, sol-gel usuli, aralashtirish usuli va emulsiya polimerizatsiyasi. 23. Gibril materiallarni tasniflashda turli yondashuvlar: modifikatsiya turi va turi o'zaro ta'sirlar. <p>Laboratoriya mashg'ulotlari 44 soat, 24.4 foiz.</p> <p>Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari:</p> <p>2-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ultradispers materiallar sintezi uchun materiallar. 2. Alyuminiy oksid asosidagi ultradispers materiallar sintezi. 3. Polietilen asosidagi kompozitsion birikmalar sintezi. 4. Polietilen asosidagi kompozitsion birikmalarning termik hossalari aniqlash. 5. Kompozitsion materiallarning mexanik hossalari aniqlash. 6. Shishasimon polimer sintezi, 7. Gellarning olinishi va hossalari. 8. Yuqori haroratda materiallar olish. 9. Termik usulda birikmalardagi funksional birikmalarni o'rganish. 10. Funksional guruhlarni aniqlashning IQ usuli. 11. Raman spektroskopiyada yordamida birikmalar tadqiqi.
---------------	---

	<p>12. Kristallarning strukturalarini o'rganish.</p> <p>13. Dasturlarda yordamida XRF tahlili.</p> <p>14. Rentgen flyurosent analiz yordamida modda tarkibini aniqlash.</p> <p>15. XRD tahlil.</p> <p>16. Uglerod asosidagi nanomateriallar.</p> <p>17. Grafen va uning asosidagi sintezlar.</p> <p>18. Uglerod asosidagi materiallarning fotolitik xossalarini aniqlash.</p> <p>19. Organik fotoelektrik moddalarning xossalari.</p> <p>20. Silikagel asosidagi materiallar sintezi.</p> <p>21. Silikagelga organik moddalarni modifikatsiyalash.</p> <p>22. Modifikatsiyalangan silikagelning xossalarini aniqlash.</p>
Baholash shakllari (og'zaki taqdimot, esse, test, yozma ish va boshqalar)	og'zaki taqdimot, yozma ish va boshqalar
O'qish va baholash talablari (modulni muvaffaqiyatli yakunlash shartlari)	<p>Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazaorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:</p> <p>Funksional materiallarning fizik kimyoviy asoslari faniga ta'lim yo'nalishida 46 soat ma'ruza, 44 soat laboratoriya va 90 soat mustaqil ta'lim ajratilgan. Universitet nizomi bo'yicha bu 180 soat yuklama hajmiga 6 kredit beriladi. Hemis dasturidagi kredit baholash tizimidagi 100 ball, O'zlashtirish chegarasi esa 60 foizdir. Joriy va oraliq nazoratida talaba jami 50 ball to'plashi mumkin. Talaba yakuniy nazoratda esa 50 ball to'playdi.</p> <p>JN mezon:</p> <p>JN: semestr uchun quyidagicha baholanadi: talabalar laboratoriya mavzu rejasiga tayyorlanib ishni bajarsa, har bir mavzu uchun 0.9 ball berib boriladi, jami 20 ball to'playdi. (22 ta mavzu*0,9 ball=20 ball beriladi).</p> <p>ON mezon (30 ball)</p> <p>ON: Oraliq nazorati ma'ruza mashg'uloti tugagandan so'ng o'tkaziladi. Oraliq nazoratida talabaga yozma savollari asosida 12 ball olishi mumkin. ON mustaqil ishi uchun modul jadvali asosida topshiriqlarini berilgan muddatda topshiradi. Belgilangan muddatida taqdim qilinmagan mustaqil ishlar qabul qilinmaydi. Modulda belgilangan mustaqil ta'lim va mustaqil ish uchun talaba 18 ball to'playdi. Talaba umumiy 30 ball to'playdi.</p> <p>YaN mezon (50 ball)</p> <p>YaN: Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkazilsa, talabaga beshta savoldan iborat variantlar taqdim etiladi. Ularning uchtasi mustaqil ta'limlarga tegishli savollar bo'ladi. Har bir yozma savollarga to'liq yozilgan javobi uchun 10 ball beriladi. Jami 50 ball).</p>
Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati (darsliklar, maqolalar, qo'llanmalar)	<p>Suzdalev I.P. Nanoklasterlar, nanostrukturalar va nanomateriallarning fizik kimyosi. Moskva. Combook, 2006 yil.</p> <p>Yarimo'tkazgich va metall nanokristallari. V.Klimov tahriri ostida. Nyu-York, Marsel Dekker Inc. 2004 yil</p>

	<p>Yuqori haroratli supero'tkazgichlar asosidagi ikkinchi avlod tok o'tkazuvchi lentalar / Ed. A. Goyala; Per. ingliz tilidan; ed. qator A.R.Kaul. M.: LKI, 2009 yil.</p>
--	---

	<p>Materiallarning oq MA xususiyatlari. Oksford universiteti matbuoti. Oksford, 1999 yil</p>
--	--

Band nomi	Ajratish va konsentrlash analiz usullari
Modul nomi / belgilanishi	AKAU2204
Modul o'qitiladigan semestr(lar)	2
Modul uchun mas'ul shaxs (<i>aniq ism-sharifi ko'rsatiladi</i>)	Jumayeva Z. E –Analitik kimyo kafedrası dotsenti, texnika fanlar nomzodi
O'qitish tili	O'zbek
O'quv dasturidagi o'rni (<i>majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli</i>)	Tanlov
O'qitish usullari (<i>ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar</i>)	Ma'ruza mashg'uloti, laboratoriya mashg'uloti
Umumiy o'quv yuklamasi (<i>kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga</i>)	- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, ma'ruza 30 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, - Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.
Kreditlar soni	4
Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar	<i>Magistrlar fanni o'zlashtirishi uchun noorganik kimyo, analitik kimyo, organik kimyo va fizikaviy kimyo fanlaridan fundamental bilimlarni bilishi talab etiladi.</i>
Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari	<i>Modulning maqsadi magistrlarda "Ajratish va konsentrlash analiz usullari" fanining nazariy asoslarini o'rgatish, hamda ishlab chiqarish va sanoatning turli sohalarida keng tarqalgan kimyoviy moddalarni aniqlash va ularni ajratib olish, analizning kimyoviy, fizik va fizik-kimyoviy usullarining nazariy hamda metodologik asoslarini shakllantirishdan iborat.</i>
— Bilimlar	<p><i>Ajratish va konsentrlash usullarining nazariy asoslari, tasnifi va qo'llanishi haqida bilimlarga ega bo'ladi.</i></p> <p><i>Kimyoviy (cho'ktirish, sorbsiya, xelatlash) va fizik-kimyoviy (ekstraksiya, elektrokimyoviy) ajratish metodlarining mohiyatini chuqur egallaydi.</i></p> <p><i>Gaz va suyuqlik xromatografiyasi, ion almashinish xromatografiyasi va ularning asosiy parametri va detektorlarining ishlash tamoyillarini egallaydi.</i></p> <p><i>Spektroskopik va mass-spektrometrik usullar (UV-Vis, IR, Raman, NMR, EPR, MS) va ularning namunalar tahlilidagi o'rni haqida puxta bilimga ega bo'ladi.</i></p> <p><i>Ekstraksiya kinetikasi, taqsimlanish koeffitsienti, reekstraksiya va ekstraksiyon xromatografiya prinsiplarini mukammal biladi.</i></p> <p><i>Termik va termoanalitik, rentgenostrukturaviy va boshqa fizik-kimyoviy tahlil usullarining asosiy printsiplari haqidagi bilimga ega bo'ladi.</i></p>

	<p><i>Analitik o'lovlarda xatoliklar manbalari, aniqlik va sezgirlikni oshirish usullari hamda namunalarni tayyorlash printsiplari tamoyillarini bilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.</i></p>
— Ko'nikmalar	<p><i>Kimyoviy va fizik-kimyoviy ajratish usullarini (ekstraksiya, sorbsiya, cho'ktirish, elektrokimyoviy usullar) tajribada amalga oshira bilish.</i></p> <p><i>Xromatografiya va spektroskopiya uskunalari (GC, HPLC, UV-Vis, IR, Raman, NMR, MS) asosiy rejimlarda ishlata olish.</i></p> <p><i>Namuna tayyorlash, reagentlar tayyorlash va tajriba protokollarini to'g'ri bajarish.</i></p> <p><i>Olingan spektrlar, xromatogramma va mass-spektrlarni tahlil qilib, moddaning sifat-miqdoriy xulosalarini chiqarish.</i></p> <p><i>Ekstraksiya va konsentrlash jarayonlari uchun taqsimlanish koeffitsienti, konsentratsiya hisoblari va kinetik tahlillarni bajarish.</i></p> <p><i>Ekspirimental ma'lumotlarni statistik va hisoblash usullari yordamida natijalarni qayta ishlash.</i></p> <p><i>Mustaqil ilmiy-amaliy ishlar, referat va taqdimotlar tayyorlash.</i></p>
— Kompetensiyalar	<p><i>ajratish va konsentrlash metodlarining nazariy asoslari va cheklovlarini baholaydi;</i></p> <p><i>selektivlik, sezgirlik, aniqlik va takrorlanuvchanlik mezonlari asosida optimal metodni aniqlaydi;</i></p> <p><i>analitik sxemani (namuna tayyorlash → ajratish → konsentrlash → aniqlash) mustaqil loyihalaydi.</i></p> <p><i>spektr va xromatogrammalarni tahlil qiladi, analitik signal tabiatini tushuntiradi;</i></p> <p><i>barqarorlik konstantalari, taqsimlanish koeffitsientlari va konsentratsiyalarni matematik usullar bilan hisoblaydi;</i></p> <p><i>tajriba xatoliklarini baholaydi va statistik tahlil asosida natijalarning ishonchliligini asoslaydi.</i></p> <p><i>reaktivlar va eritmalarini yuqori aniqlikda tayyorlaydi;</i></p> <p><i>ekstraksiya-fotometrik, ion-almashinish va xromatografik tajribalarni xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiradi;</i></p> <p><i>olingan natijalar asosida ilmiy xulosa chiqaradi va ularni professional muhitda himoya qila oladi.</i></p>
Modul mazmuni	<p>Ma'ruza mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.</p> <p>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari:</p> <p>3-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> <i>Kirish. Fan predmeti va asosiy masalalari.</i> <i>Ajratish va konsentrlash metodlarining umumiy tavsiflari.</i> <i>Ajratish va konsentrlashning kimyoviy metodlari.</i> <i>Moddaning aniqlash usullari (sifat va miqdoriy): element, molekulyar va fazaviy tahlil.</i> <i>Ekstraksiya elementlarni konsentrlash va ajratish metodi.</i> <i>Ajratish va konsentrlashning elektrokimyoviy metodlari.</i> <i>Molekular spektroskopiya usullarining nazariy asoslari</i> <i>Atom va molekular spektroskopiylarning asoslari</i> <i>Spektrofotometrik tahlil usullari</i> <i>Tebranma spektroskopiya usullari. Tahlilning asosiy bosqichlari</i>

	<p>11. <i>KS (Raman) spektroskopiyasi. Tahlilning asosiy bosqichlari</i></p> <p>12. <i>Ionizatsiyalash usuli: elektron zarba, fotoionizatsiyalash, kimyoviy ionizatsiyalash</i></p> <p>13. <i>Xromatografiya usullarining nazariy asoslari</i></p> <p>14. <i>Ion almashinish xromatografiyasi.</i></p> <p>15. <i>Gaz va suyuqlik xromatografiyasi</i></p> <p>Laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.</p> <p>Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari.</p> <p>3-semestr.</p> <p>1. <i>Ferroinni yod ionlari bilan ion assosiatning tarkibi va barqarorlik konstantasini aniqlash</i></p> <p>2. <i>Ferroinni yod ionlari bilan ion assosiatning tarkibi va barqarorlik konstantasini matematik hisoblash.</i></p> <p>3. <i>Cu(II) ni natriy dietilditiokarbaminat yordamida ekstraksion–fotometrik aniqlash va natijalarni hisoblash</i></p> <p>4. <i>Zn(II) ni natriy dietilditiokarbaminat yordamida ekstraksion–fotometrik aniqlash uchun kerakli eritmalarni tayyorlash</i></p> <p>5. <i>Zn(II) ni natriy dietilditiokarbaminat yordamida ekstraksion–fotometrik aniqlash va natijalarni hisoblash</i></p> <p>6. <i>Qo'rg'oshin dietilditiokarbaminati yordamida almashinish ekstraksiyasi asosida Cu(II) ni ekstraksion fotometrik aniqlash uchun kerakli eritmalarni tayyorlash</i></p> <p>7. <i>Qo'rg'oshin dietilditiokarbaminati yordamida almashinish ekstraksiyasi asosida Cu(II) ni ekstraksion fotometrik aniqlash va natijalarni hisoblash</i></p> <p>8. <i>Qo'rg'oshin dietilditiokarbaminati yordamida almashinish ekstraksiyasi asosida Ni(II) ni ekstraksion fotometrik aniqlash uchun kerakli eritmalarni tayyorlash</i></p> <p>9. <i>Qo'rg'oshin dietilditiokarbaminati yordamida almashinish ekstraksiyasi asosida Ni(II) ni ekstraksion fotometrik aniqlash va natijalarni hisoblash</i></p> <p>10. <i>Qo'rg'oshin dietilditiokarbaminati yordamida almashinish ekstraksiyasi asosida Ag(I) ni ekstraksion fotometrik aniqlash va natijalarni hisoblash</i></p> <p>11. <i>Ni(II) ni natriy dietilditiokarbaminat yordamida ekstraksion–fotometrik aniqlash va natijalarni hisoblash</i></p> <p>12. <i>Qo'rg'oshin dietilditiokarbaminati yordamida almashinish ekstraksiyasi asosida Zn(II) ni ekstraksion fotometrik aniqlash uchun kerakli eritmalarni tayyorlash</i></p> <p>13. <i>Xromatografik usul bilan ba'zi bir metall ionlarini ochish va ajratish aniqlash uchun kerakli eritmalarni tayyorlash</i></p> <p>14. <i>Xromatografik usul bilan ba'zi bir metall ionlarini ochish va ajratish va natijalarni hisoblash</i></p> <p>15. <i>Statik sharoitda ionitlarning to'la almashinish sig'imini aniqlash.</i></p>
Baholash shakllari (og'zaki taqdimot, esse, test, yozma ish va boshqalar)	og'zaki taqdimot, esse, yozma ish, imtixon
O'qish va baholash talablari (modulni)	Kimyoviy ajratish va konsentrlash usullari faniga ta'lim yo'nalishida 30 soat ma'ruza, 30 soat laboratoriya va 60 soat

<p><i>muvaffaqiyatli yakunlash shartlari)</i></p>	<p><i>mustaqil ta'lim ajratilgan. Universitet nizomi bo'yicha bu 120 soat yuklama hajmiga 4 kredit beriladi. Hemis dasturidagi kredit baholash tizimidagi 100 ball, o'zlashtirish chegarasi esa 60 foizdir. Joriy va oraliq nazoratida talaba jami 50 ball to'plashi mumkin. Talaba yakuniy nazoratda esa 50 ball to'playdi.</i></p> <p><i>JN mezon:</i> <i>JN: Talaba amaliy mashg'ulotlarini bajarib, mavzu bo'yicha nazariy bilimlarni egallasa, har bir darsda qatnashishiga qarab maksimal 2 ball berib boriladi, jami 20 ball to'playdi 2-semestr 10*2=20 ball).</i></p> <p><i>ON mezon (30 ball).</i> <i>ON: Oralq nazorati ma'ruza mashg'uloti tugagandan so'ng o'tkaziladi. Oralq nazoratida talabaga og'zaki yoki test savollari asosida 15 ball olishi mumkin. ON mustaqil ishi uchun modul jadvali asosida topshiriqlarini berilgan muddatda topshiradi. Belgilangan muddatida taqdim qilinmagan mustaqil ishlar qabul qilinmaydi. Modulda belgilangan mustaqil ta'lim va mustaqil ish uchun talaba 15 ball to'playdi. Talaba umumiy oraliq nazoratdan 30 ball to'playdi.</i></p> <p><i>YaN mezon (50 ball).</i> <i>YaN: Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkazilsa, talabaga beshta savoldan iborat variantlar taqdim etiladi. Ularning uchtasi mustaqil ta'limlarga tegishli savollar bo'ladi. Har bir yozma savollarga to'liq yozilgan javobi uchun 10 ball beriladi. Jami 50 ball).</i></p>
<p><i>Tavsiya adabiyotlar (darsliklar, qo'llanmalar)</i></p>	<p>1. Jeanne L. McHale. Molecular Spectroscopy Second Edition Washington State University. Taylor & Francis Group, LLC CRC Press is an imprint of Taylor & Francis Group, an Informa business. 2017 y. Pp 477.</p> <p>2. Пентин Ю.А., Вилков Л.В. Физические методы исследования в химии. 2012 г.</p> <p>3. Беккер Ю. "Спектроскопия". Пер. с немец. М. "Техносфера", 2009, 528 с.</p> <p>4. Вилков Л.В., Пентин Ю.А. "Физические методы исследования в химии". М. Мир, 2003.</p> <p>5. Elsa Lundanes, Leon Reubsaet, Tyge Greibrokk. Chromatography Basic Principles, Sample Preparations and Related Methods. Wiley-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA, Boschstr. 12, 69469 Weinheim, Germany. 2014 y. Pp 223.</p> <p>6. Xaitbayev A.X., Maulyanov S.A., Toshov X.S. Organik birikmalar tuzilishini UB- va IQ-spektr usullari yordamida tahlil qilish. O'zMU bosmaxonasi. 2020 y. 84 b.</p>

<i>Band nomi</i>	Analizning xromatografik usullari.
<i>Modul nomi / belgilanishi</i>	AXU2204
<i>Modul o'qitiladigan semestr(lar)</i>	2
<i>Modul uchun mas'ul shaxs (aniq ism-sharifi ko'rsatiladi)</i>	Jumayeva Z. E – Analitik kimyo kafedrasida dotsenti, texnika fanlar nomzodi.
<i>O'qitish tili</i>	O'zbek
<i>O'quv dasturidagi o'rni (majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli)</i>	Tanlov
<i>O'qitish usullari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar)</i>	Ma'ruza, laboratoriya
<i>Umumiy o'quv yuklamasi (kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga)</i>	- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, shundan ma'ruza mashg'ulotlari 30 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, - Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.
<i>Kreditlar soni</i>	4
<i>Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar</i>	Analitik kimyo, Fizik kimyo, Organik kimyo.
<i>Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari</i>	Talabalarga xromatografiya usullarining nazariy asoslarini, turlarini, asbob-uskunalarini va amaliy qo'llanish sohalari o'rgatish hamda mustaqil analitik tahlil olib borish ko'nikmalarini shakllantirish.
— Bilimlar	Xromatografiya usullarining nazariy asoslarini (adsorbsiya, taqsimlanish, ion-almashinish, gel-filtratsiya, affinitet) biladi; Statsionar va harakatchan fazalarning xossalari hamda ularning ajratish jarayoniga ta'sirini tushuntira oladi; Yupqa qatlamli, gaz, yuqori samarali suyuqlik, ion-almashinish va gel-xromatografiya turlarining ishlash prinsiplarini biladi; Xromatogramma tushunchasi, retensiya vaqti, ajratish koeffitsienti, samaradorlik (nazariy plastinkalar soni), rezolyutsiya kabi asosiy analitik parametrlarni biladi; Xromatografik usullarning afzalliklari, cheklovlari va analitik kimyodagi o'rnini biladi.
— Ko'nikmalar	tahlil qilinadigan namunaga mos xromatografik usulni tanlay oladi; statsionar va harakatchan fazalarni to'g'ri tanlash va tayyorlashni amalga oshira oladi; xromatogrammani o'qish, piklarni aniqlash va miqdoriy hisob-kitoblarni amalga oshira oladi;

	<p><i>ajratish samaradorligini baholash va xatolik manbalarini aniqlay oladi.</i></p>
— Kompetensiyalar	<p><i>xromatografik tahlil usullarining sanoat miqyosidagi ahamiyati, kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, ekologiya va biologiya sohalarida qo'llanilishini hamda xromatografiyaning harakatli va harakatsiz fazalari, ularning agregat holati (gaz–suyuqlik, suyuqlik–qattiq, gaz–qattiq va h.k.) hamda ajralish mexanizmlarini (adsorbsiya, taqsimlanish, ion almashinish, affinitet) izohlay oladi;</i></p> <p><i>xromatografik ajratish ko'rsatkichlarini (ushlab qolish vaqti, ushlab qolish hajmi, ajralish darajasi, selektivlik koeffitsienti) hisoblay oladi va murakkab aralashmalar uchun xromatografik ajratish samaradorligini baholaydi;</i></p> <p><i>xromatografik tahlilda kalibrlash grafigini tuzadi, undan miqdoriy analizda foydalanadi va olingan xromatogrammalar asosida sifat va miqdor natijalarini tahlil qiladi va xulosa chiqaradi;</i></p> <p><i>xromatografik usullarni sanoat, ekologik, biologik va farmatsevtik masalalarni yechishda qo'llay oladi va murakkab aralashmalarni tahlil qilishda zamonaviy xromatografik yondashuvlarni tanlaydi.</i></p>
Modul mazmuni	<p>Ma'ruza mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz. Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari:</p> <p>2-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xromatografik analiz usullari fani sanoat miqyosidagi ahamiyati. 2. Xromatografik tahlil usullarining harakatli va harakatsiz fazalarning agregat xolati, ajralish mexanizmi. 3. Xromatografik ajralish jarayenining selektivligi va samaradorligi. 4. Xromatografik ajralish jarayonlariga turli omillarining ta'siri. 5. Yupqa qavat xromatogrammalarining olinishi (yuqoriga chiquvchi, pastga tushuvchi, aylanma, ikki o'lchamli). 6. Sorbentlar va xarakatli fazalar. 7. Gaz xromatografiyasining nazariy asoslari va asosiy parametrlari, ushlab qoluvchi hajmi. 8. Gaz xromatografiyasida sifat va miqdor analiz. 9. Suyuqlik xromatografiyasi. 10. Suyuklik xromatografiyasida sifat va miqdor analiz. 11. Ion almashinish xromatografiyasining mohiyati. Ionlar klassifikatsiyasi. 12. Statik almashinish sig'imi, dinamik almashinish sig'imi. 13. Mass-spektrometrik xromatografiya. 14. Eksklyuzion xromatografiya. Ajratish mexanizmining umumiy prinsiplari. 15. Affin xromatografiya. Ajratish mexanizmining umumiy prinsiplari. <p>Laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz. Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari. 2-semestr.</p>

	<p>1. Gaz xromatografiyasining asosiy qismlari, ularning xususiyatlari, ishlash prinsplari, xromatorafik kolonka detektor xossalari.</p> <p>2. Gaz xromatografiyasi. Xarakatli suyuq faza xossalari va ularni tanlash prinsiplari.</p> <p>3. Gaz xromatografiyasi. Xromatografik kolonka tanlash, harakatli soyuq faza tanlash, xromatografik kolonkani xarakatli suyuq faza bilan to'ldirishi.</p> <p>4. Gaz xromatografiyasi. Alifatik spirtlarning sifat analizi. Etil spirti tarkibidagi spirtlar va efirlarni aniqlash.</p> <p>5. Gaz xromatografiyasi. Aromatik uglevodorodlari aralashmasining miqdor analizi.</p> <p>6. Murakkab spirtlar aralashmasi namunasida xromatografik ajratish kattaliklari qiymatlarini hisoblash.</p> <p>7. Qog'oz xromatografiyasi yordamida marganes (II), kationini aniqlash.</p> <p>8. Kobalt (II) kationini qog'oz xromatografiyasi yordamida aniqlash.</p> <p>9. Qog'oz xromatografiyasi yordamida nikel (II) kationini aniqlash.</p> <p>10. Xlororganik birikmalar miqdoroni xromatografiya usulida aniqlash.</p> <p>11. Xromatografiya usulida fosfororganik birikmalar miqdorini aniqlash.</p> <p>12. Murakkab aralashmalarni yupqa qavatli xromatografiyada sifat tahlili.</p> <p>13. Kolonkali xromatografiya vositasi biologik yoki organik aralashmalarni fraksiyalash.</p> <p>14. Ion almashinish xromatografiyasi yordamida metall ionlarini va xususiyatlari.</p> <p>15. Xromatlashtirish tahlilida kalibrlash grafigi va ilovani yaratish.</p>
<p>Baholash shakllari (og'zaki taqdimot, esse, test, yozma ish va boshqalar)</p>	<p>Yozma</p>
<p>O'qish va baholash talablari (modulni muvaffaqiyatli yakunlash shartlari)</p>	<p>Talabning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:</p> <p>a) 5 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <p>fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritma olsa;</p> <p>fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va matiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;</p> <p>fan bo'yicha mavzu materialllarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;</p> <p>fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;</p> <p>berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;</p> <p>konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;</p> <p>mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;</p>

	<p><i>fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;</i></p> <p><i>fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;</i></p> <p><i>tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa.</i></p> <p><i>b) 4 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</i></p> <p><i>fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;</i></p> <p><i>fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha konspektini puxta tayyorlagan bo'lsa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa.</i></p> <p><i>v) 3 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</i></p> <p><i>fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;</i></p> <p><i>fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;</i></p> <p><i>bayon qilish ravon bo'lmasa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.</i></p> <p><i>g) quyidagi hollarda talabning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan</i></p> <p><i>baholanishi mumkin:</i></p> <p><i>fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;</i></p> <p><i>fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;</i></p> <p><i>fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;</i></p> <p><i>fanni bilmasa.</i></p>
<p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati (darsliklar, maqolalar, qo'llanmalar)</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Кристиан Г. «Аналитическая химия». Кн. 2, Москва Бином, 2011-511с. 2. Золотов Ю.А., Дорохова Е.Н., Фадеева В.И. и др. Кн. 2 Основы аналитической химии. М.: "Высшая школа" 2002 324с. 3. Пругло Г.Ф., Фёдорова О.В., Смит Р.А. Хроматографические методы анализа: учебное пособие / ВШТЭ СПбГУИТД. - СПб., 2017 - 85 с. 4. Шаповалова Е.Н., Пирогов А.В. Хроматографические методы анализа: метод. пособие для спец. курса. - М.: Изд-во МГУ, 2007 - 204 с. 5. Гиндулина Т.М., Дубова Н.М. Хроматографические методы анализа: учебно-методическое пособие /– Томск:

	<i>Изд-во Томского политехнического университета, 2010 – 80 с.</i>
--	--

Band nomi	Geterosiklik birikmalar kimyosi
Modul nomi / belgilanishi	GBK2204
Modul o'qitiladigan semestr(lar)	2
Modul uchun mas'ul shaxs (<i>aniq ism-sharifi ko'rsatiladi</i>)	k.f.d.(DSc), prof. Aliqulov R.V. k.f.n. dots. Allaberdiyev F.X.
O'qitish tili	O'zbek
O'quv dasturidagi o'rni (<i>majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli</i>)	Tanlov
O'qitish usullari (<i>ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar</i>)	Ma'ruza mashg'uloti, laboratoriya mashg'uloti
Umumiy o'quv yuklamasi (<i>kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga</i>)	- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, ma'ruza 30 soat, laboratoriya mashg'uloti 30 soat. - Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.
Kreditlar soni	4
Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar	<i>Magistrlar fanni o'zlashtirishi uchun analitik kimyo, organik kimyo fanlaridan fundamental bilimlarni bilishi talab etiladi.</i>
Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari	<i>Ushbu fan geterotsiklik birikmalarning turlari, nomenklaturasi, ularning olinish usullari, tuzilishi, kimyoviy xossalari va biologik xususiyatlarini o'rgatish, talabalarda turli atomlar tutgan organik birikmalarni sintez qilish rejalarini tuzish, fizik-kimyoviy xossalarni nazariy asoslash ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.</i>
— Bilimlar	<i>Ikki va uch atomli geterotsiklik birikmalar bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'ladi.</i> <i>Geterotsiklik birikmalarning turli xil funksional guruh tutgan birikmalar bilan hosilalarini olish usullarini ishlab chiqadi.</i> <i>Geterosiklik birikmalarning fizik - kimyoviy xossalari ularning tarkibidagi funksional guruhlarning tabiatiga, molekulada joylashgan o'rniga bog'liqligini taxlil qiladi.</i>
— Ko'nikmalar	<i>Magistrlar fanni o'zlashtirish natijasida quyidagi ko'nikmalariga ega bo'ladi:</i> <ul style="list-style-type: none"> • <i>geterotsiklik birikmalar bo'yicha kondensatsiya reaksiyalari, ajralish reaksiyalari, qayta guruhlanish reaksiyalari va funksional guruhlarning o'zgarishini taxlil qilish;</i> • <i>gidrogenlash, galogenlash va degidrogenlash usullarini amalda qo'llash;</i> • <i>Uilkinson katalizatorlari yordamida geterotsiklik birikmalar sintez qilish;</i>

	<ul style="list-style-type: none"> • <i>Sintez qilingan geterotsiklik birikmalarning xossalarini aniqlash hamda ularning tarkibini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida aniqlash.</i>
— Kompetensiyalar	<p><i>geterosiklik birikmalarning tuzilishi, nomenklaturasi, aromatikligi, elektron taqsimoti va reaktivligini (3–6 a'zoli, kondensirlangan va ko'p geteroatomli tizimlar) zamonaviy organik kimyo nazariyalari asosida tahlil qila oladi;</i></p> <p><i>fulan, tiofen, pirrol, indol, piridin, xinolin va nikotin kabi muhim geterosiklik birikmalarni laboratoriya sharoitida sintez qila oladi hamda sifat reaksiyalarini o'tkazadi, xossalarini aniqlaydi va natijalarni ilmiy asosda baholay oladi;</i></p> <p><i>geterosiklik birikmalar bo'yicha tajribalarni mustaqil rejalashtira oladi shuningdek reaksiyalar mexanizmini tushuntira oladi va olingan natijalar asosida ilmiy xulosa chiqaradi;</i></p>
Modul mazmuni	<p><i>Ma'ruza mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.</i></p> <p><i>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari:</i></p> <p><i>2-semestr</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <i>1. Geterosiklik birikmalar kimyosi faniga kirish;</i> <i>2. Tarkibida azot, kislorod va oltingugurt tutgan geterohalqali birikmalarning sinflanishi, tuzilishi va nomenklaturasi;</i> <i>3. Oksiranlar va tiiranlar. Tuzilishi, olinishi va xossalari;</i> <i>4. Aziridinlarning tuzilishi, sintez usulida olinishi va xossalari;</i> <i>5. Oksetan va uning hosilalari sintezi, fizik va kimyoviy xossalari;</i> <i>6. Azetid birikmalarini alkillash va atsillash reaksiyalari;</i> <i>7. Furan va pirrolning tuzilishi, olinishi va fizik – kimyoviy xossalari;</i> <i>8. Tiofen va uning hosilalari sintezi. Yu.K.Yurev reaksiyasi;</i> <i>9. Pirrolni sulfolash, alkillash, asillash va oksidlash reaksiyalari;</i> <i>10. Indol, karbazol ularning tuzilishi olinishi, nitrolash, nitrozirlash, alkillash va atsillash reaksiyalari;</i> <i>11. Indolning kislorod tutgan birikmalari: indoksil, oksindol, dioksindol va izatin ularning tuzilishi, olinishi va xossalari;</i> <i>12. Pirazol, imidazol hosilalari sintezi tuzilishi xossalari;</i> <i>13. Oksazol, tiazol birikmalarning tuzilishi va olinishi;</i> <i>14. Benzoksazolda hosilalari sintezi. Unda elektrofily almashinish reaksiyasi;</i> <i>15. Piridin va uning alkilbirikmalari tuzilishi va xossalari;</i> <p><i>Laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.</i></p> <p><i>Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari.</i></p> <p><i>2-semestr.</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <i>1. 5-nitrofurfurol sintezi;</i> <i>2. 2-Bromtiofen sintezi;</i> <i>3. 2-metil-5-asetilfuran sintezi;</i> <i>4. 2-asetiltiofen sintezi;</i> <i>5. Benzil-2-furilketon sintezi;</i> <i>6. 2,3-Dimetilindol sintezi;</i> <i>7. 2-Fenilindol sintezi;</i>

	<p>8. 4,5-Difenilimidazol sintezi; 9. 3,5-Dimetilpirazol sintezi; 10. 2-Fenilbenzimidazol sintezi; 11. Benzoksazol sintezi; 12. Benzotriazol sintezi; 13. Izonikotin kislota sintezi; 14. 2-Fenoksipiridin sintezi; 15. Xinolin sintezi;</p>
<p>Baholash shakllari (og'zaki taqdimot, esse, test, yozma ish va boshqalar)</p>	<p>og'zaki taqdimot, yozma ish</p>
<p>O'qish va baholash talablari (modulni muvaffaqiyatli yakunlash shartlari)</p>	<p>Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi: Geterosiklik birikmalar kimyosi faniga ta'lim yo'nalishida 30 soat ma'ruza, 30 soat laboratoriya va 60 soat mustaqil ta'lim ajratilgan. Universitet nizomi bo'yicha bu 120 soat yuklama hajmiga 4 kredit beriladi. Hemis dasturidagi kredit baholash tizimidagi 100 ball, o'zlashtirish chegarasi esa 60 foizdir. Joriy va oraliq nazoratida talaba jami 50 ball to'plashi mumkin. Talaba yakuniy nazoratda esa 50 ball to'playdi. JN mezon: JN: Talaba 2-semestr laboratoriya mavzu rejasiga tayyorlanib muhokamada qatnashsa, har bir mavzu uchun 0,53 ball berib boriladi, jami 8 ball to'playdi. (15ta mavzu*0,53 ball=8 ball, kreativ fikri bo'lsa 0,05 ball beriladi). 1-20 mustaqil ish topshiriqlarining har biriga esa 0,6 ball beriladi, jami 12 ball to'playdi. (20ta mustaqil ish*0,6 ball=12 ball). ON mezon (30ball) ON: Oraliq nazorati ma'ruza mashg'uloti tugagandan so'ng o'tkaziladi. Oraliq nazoratida talabaga og'zaki yoki test savollari asosida 12 ball olishi mumkin. ON mustaqil ishi uchun modul jadvali asosida topshiriqlarini berilgan muddatda topshiradi. Belgilangan muddatda taqdim qilinmagan mustaqil ishlar qabul qilinmaydi. Modulda belgilangan mustaqil ta'lim va mustaqil ish uchun talaba 18 ball to'playdi. Talaba umumiy 30 ball to'playdi. YaN mezon(50ball) YaN: Yakuniy nazorat yozma va amaliy shakllarida o'tkazilsa, talabaga beshta savoldan iborat variantlar taqdim etiladi. Ularning uchtasi mustaqil ta'limlarga tegishli savollar bo'ladi. Har bir yozma savollarga to'liq yozilgan javobi uchun 10 ball beriladi. Jami 50 ball). Test shaklida o'tkazilsa 25 ta test savoli beriladi va ular ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim shakllaridan olinadi va har bir test savollariga 2 ball beriladi</p>
<p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati (darsliklar, maqolalar, qo'llanmalar)</p>	<p>Ахмедов Қ.Н., Алиев Н.А. Гетероциклические бирикмалар кимёси. Т. «Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети» босмахонаси, 2004. Артеменко А.И. Органическая химия. М., «Высшая школа», 1987. А.Абдусаматов. Органик кимё. Т., Талкин, 2005. Дж.Робертс., М.Касерио. Основы органической химии. М., Мир.</p>

	<p>Терней А. Современная органическая химия в 2-х томах. М., Мир, 1981</p> <p>Артеменко А.И. Органическая химия. М., «Высшая школа», 1987.</p> <p>Рожарский А.Ф., В.А. Анисимова., Е.Б. Цинюк. практические работы по химии гетероциклов. Ростов., 1998 г.</p> <p>В.И.Ивановский. Химия гетероциклических соединений. М., Высшая школа, 1978.</p> <p>Белинский Л.И. Химия гетероциклических соединений. М., Наука, 1998</p>
--	---

<i>Band nomi</i>	Tabiiy va sintetik bo'yoqlar kimyosi
<i>Modul nomi / belgilanishi</i>	<i>TSBK2204</i>
<i>Modul o'qitiladigan semestr(lar)</i>	<i>II</i>
<i>Modul uchun mas'ul shaxs (aniq ism-sharifi ko'rsatiladi)</i>	<i>Alikulov R.V – Organik kimyo kafedrasida, kimyo fanlari doktori, professor.</i>
<i>O'qitish tili</i>	<i>O'zbek</i>
<i>O'quv dasturidagi o'rni (majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli)</i>	<i>Tanlov</i>
<i>O'qitish usullari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar)</i>	<i>Ma'ruza, laboratoriya</i>
<i>Umumiy o'quv yuklamasi (kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga)</i>	- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, shundan ma'ruza mashg'ulotlari 30 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, - Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.
<i>Kreditlar soni</i>	<i>4</i>
<i>Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar</i>	Magistrlar fanni o'zlashtirishi uchun organik kimyo, noorganik kimyo, bioorganik kimyo va kimyoviy texnologiya fanlaridan fundamental bilimlarni bilishi talab etiladi.
<i>Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari</i>	“Tabiiy va sintetik bo'yoqlar kimyosi” fanining maqsadi magistrantlarda organik bo'yoq moddalarining kimyoviy tuzilishi, rang hosil bo'lish mexanizmlari, bo'yoqlarning sintezi, tasnifi, spektral va funksional xossalari hamda ularning sanoat, ekologiya va texnologik jarayonlardagi qo'llanilishi bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish, shuningdek, bo'yoqlarning barqarorligi va samaradorligini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar asosida tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.
<i>— Bilimlar</i>	Tabiiy va sintetik bo'yoqlar turlari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'ladi. tabiiy va sintetik bo'yoqlar kimyosining predmeti, rivojlanish tarixi va zamonaviy yo'nalishlarini; organik birikmalarda rang hosil bo'lish nazariyalarini (xromofor, auksoxrom, konjugatsiya); bo'yoqlarning klassifikatsiyasi, nomenklaturasi va rang xususiyatlarini; bo'yoq molekulalarining spektral xossalari va UV–Vis yutilish mexanizmlarini; polimetin, arilmetan, nitro, nitrozo, oltingugurtli, indigoid, antraxinonli, azobo'yoqlar va ftalotsianinlarning kimyoviy tuzilishi va sintez usullarini;

	<p>bo'yoqlarning funksional xossalari va barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni;</p> <p>yangi bo'yoqlar sintezi prinsiplari va struktura–rang bog'liqligi haqidagi zamonaviy tushunchalarni biladi.</p>
— Ko'nikmalar	<p>turli sinf bo'yoqlarini laboratoriya sharoitida sintez qilish;</p> <p>bo'yoqlarning rang va spektral xossalarini (UV–Vis) tajribaviy aniqlash;</p> <p>bo'yoqlarning bo'yash mustahkamligini (yorug'lik, yuvish, ishqalanish) baholash;</p> <p>tabiiy manbalardan bo'yoqlarni ajratib olish va ularni tahlil qilish;</p> <p>bo'yoqlarning barqarorligi va samaradorligini qiyosiy tahlil qilish;</p> <p>eksperimental natijalarni ilmiy hisobot va grafiklar ko'rinishida rasmiylashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladi.</p>
— Kompetensiyalar	<p>bo'yoq moddalarining tuzilishi, xossalari va qo'llanilishi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qila oladi;</p> <p>bo'yoqlar sintezi va tahliliga oid murakkab masalalarni mustaqil hal eta oladi;</p> <p>zamonaviy fizik-kimyoviy usullardan foydalangan holda bo'yoqlar sifatini baholay oladi;</p> <p>bo'yoqlar bilan bog'liq sanoat va ekologik muammolarni hal etishda ilmiy yondashuvni qo'llay oladi;</p> <p>ilmiy jamoada ishlash, natijalarni asoslab taqdim etish va professional muloqot olib borish kompetensiyalariga ega bo'ladi.</p>
Modul mazmuni	<p><i>Ma'ruza mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.</i></p> <p><i>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari:</i></p> <p><i>2-semestr</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tabiiy va sintetik bo'yoqlar kimyosi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. 2. Organik bo'yoq moddalarining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari. 3. Organik birikmalarda rang hosil bo'lish nazariyalari (xromofor va auksoxrom tushunchalari). 4. Bo'yoq moddalarining klassifikatsiyasi va nomenklaturasi. 5. Organik bo'yoqlarning rang xususiyatlari va tasnifi. 6. Rang tushunchasining fizik-kimyoviy asoslari va bo'yoq molekularining spektral xossalari 7. Bo'yoq moddalariga qo'yiladigan zamonaviy talablar va ularning sanoat sintezidagi rivojlanish tendensiyalari. 8. Polimetin va arilmetan bo'yoqlar: tuzilishi, xossalari va qo'llanilishi. Kationli geteroaromatik bo'yoqlar. 9. Nitro va nitrozo bo'yoqlar: sintezi va rang xossalari. 10. Oltinugurtli bo'yoqlar: tuzilishi, olinishi va qo'llanilish sohalari. 11. Indigoid bo'yoqlar: kimyoviy tuzilishi va bo'yash mexanizmi.

